



**O‘ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI
RIVOJLANTIRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

26-aprel 2024-yil

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА
РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ» В УЗБЕКИСТАНЕ**

26 апреля 2024 года

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
PERSPECTIVES AND REGIONAL FEATURES OF THE
EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE
DEVELOPMENT OF THE "GREEN ECONOMY" IN
UZBEKISTAN**

April 26, 2024

Buxoro

“O‘zbekistonda "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2024-yil 26-aprel: - Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy" Durdona Nashriyoti, 2024.-460 b.

1. Qo‘yidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1. O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2. T.X.Rasulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3. A.T.Jo‘rayev Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor,i.f.n, a`zo;
4. D.Sh. Yavmutov – Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n, dotsent, a`zo;
5. B.N. Navruz-Zoda – Marketing va menejment kafedrası professorı, i.f.d.,psofessor, a`zo;
6. N.S.Ibragimov – Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo;
7. A.J. Abdullayev – Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d., professor, a`zo;
8. S.S.Davlatov – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri v.v.b., a`zo;
9. M.A. Oripov – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a`zo;
10. X.R.Turobova – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a`zo;

2. Qo‘yidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1. T.X.Rasulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2. D.Sh. Yavmutov – Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n, dotsent, rais muovini;
3. O`. U.Rashidov – Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a`zo;
4. F.N.Nurulloyev – Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a`zo;
5. N.S.Ibragimov – Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo;
6. A.J. Abdullayev – Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d., professor, a`zo;
7. S.S.Davlatov – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri v.v.b., a`zo;
8. M.A. Oripov – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a`zo;
9. X.R.Turobova – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a`zo;
10. S.S.Ro‘ziyev – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, i.f.n, a`zo;
11. F.K.Saidova – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a`zo;
12. A.D.Qudratov – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a`zo;

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Biroq bu siyosat bozor tizimining iqtisodiy qonuniyatlarini bekor qila olmaydi, ishsizlikni hodisa sifatida yengib chiqqa olmaydi. Zamonaviy davlat bandlik siyosati ishsizlikdan umuman qutulish emas, balki uni tabiiy darajaga tushirish, ishsizlikning davomiyligini qisqartirish, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish, bandlik davlat dasturlari samaradorligini oshirish, aholini ish bilan ta'minlash, aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari samaradorligini oshirish, ishsizlikka qarshi kurashning bunday usullaridan foydalanish, натижада iqtisodiyotda inflyatsiyani keltirib chiqarishni oldi olinadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoev. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan.
2. Arbatskiy D. V. PROBLEMA ZANYaTOSTI I B. IZVESTIYa.PGPU.im. V.G.Belinskogo OBo'estvennqe nauki. №16 (20)2010 g.
3. AVINASH BHAGWAT. [Main Features of the Employment Problem in Developing Countries](#). Publication Date: 01 Jan 1973eISBN: 9781451956351Language
4. Genkin B.M. "Ekonomika i sotsiologiya truda". Uchebnik dlya vuzov.-M.:Izdatel'skaya gruppa NORMA-INFRA. M, 1999 g.-3-str.
5. Sm. Kurs obshchey ekonomicheskoy teorii. Pod red.Dobrynina A.I., Tarasevicha L.S., Spb,1996,s.316-317.
6. Kartashov S.A. , Yu.G.Odegov. Рынок труда, проблемы формирования и управления. Moskva. ZAO."Finstatinform"-1998 g. 6-7-str.
7. Sakovich M.V. 2007 — *Problema zanyatosti i bezrobotitsy*.
<https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/112432/1/Sakovich-16.pdf>

G'afurova Shahloxon Karimovna

BuxDU Iqtisodiyot kafedrası o'qıtuvchısı

OLIV TA'LIM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SIFAT MENEJMENTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ta'lim sohasiga e'tibor globallashtirish va axborot texnologiyalari asrida, mamlakatning rivojlanish darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ko'rsatkichlar, kuch va qudratni baholash bilan belgilanadigan, balki ko'p jihatdan uning intellektual salohiyatiga asoslangan davrda ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Zero, bu ilmiy-texnik taraqqiyot, uning poydevori ta'lim muhitida qo'yilgan, bu mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovonligining markaziy bo'g'inidir. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi¹da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishi sifatida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi belgilab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda milliy oliy ta'lim muassasalarida (universitetlarda) sifat menejmenti tizimini takomillashtirish ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadlariga erishishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Sifat menejmenti tushunchasi dastlab umumiy menejment oqimida rivojlanib kelgan bo'lib, uning rivojlanishini besh bosqichga ajratadilar. Taxminan 1920 yilgacha sifat menejmenti tashkilotning umumiy boshqaruv jarayonining bir qismi sifatida tarqoq holdagi boshqaruv unsurlaridan iborat edi. Bu sohadagi ilk ilmiy ishlar F. Teylor², A. Fayol³, M. Veber⁴larning qalamlariga mansub. Mazkur ishlar menejmentning fan sifatida shakllanishiga asos bo'libgina qolmay, F. Teylorning ilmiy maktabi, A. Fayolning tashkilotning universal funksional modeli va M. Veberning byurokratik tashkiliy modeli sifat menejmentini ham rivojlantirish uchun nazariy asos yaratdi.

Keyinchalik, uzoq vaqt davomida umumiy menejment va sifat menejmentini rivojlantirish yo'llari turlicha bo'ldi. Sifat muammosi mutaxassislar tomonidan asosan ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhandislik-texnik muammosi sifatida, menejment esa, ustuvor ravishda tashkiliy va hatto ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qabul qilingan va rivojlantirilgan.

Ta'lim sifati muammosini tahlil qilish, odatda, sifat nimaga bog'liqligini aniqlashdan boshlanadi, o'zgacha qilib aytganda, tadqiqotchilar, avvalambor, "ta'lim sifatini nima belgilaydi?", degan savolga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni

² Teylor, F. U. Prinsipi nauchnogo menedjmenta : per. s angl. // Kontrolling.-1991.-Vip. 1.

³ Fayol, H. General and Industrial Management. - Constance Storrs. Pitman. -London, 1949.

⁴ Вебер, М Избранные произведения : пер. с нем. - М. : Прогресс, 1990. -804 с.

javob topishdan boshlaydilar. Haqiqatan ham bu muhim muammo bo'lib, uning echimiga qarab oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarish asoslanadigan usullar tanlanadi.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan ta'lim sifatining uchta tarkibiy qismlari ajratiladi: ta'lim mazmunining sifati (bilim sifati, muammolarni hal qilish usullari sifati), ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarining sifati (kognitiv faoliyatni tashkil etish sifati, kognitiv faoliyatni rag'batlantirish sifati, ta'lim faoliyatining bajarilishini nazorat qilish sifati, ta'lim faoliyati natijalarini nazorat qilish sifati); shaxsning bilimdonlik sifati (bilimlarni o'zlashtirish sifati, ko'nikma va malakalarning sifati, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish sifati).

Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar, aynan, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga e'tiborni qaratishmoqda. Bir qator ilmiy ishlarni o'rganish natijasida, ular ta'lim sifatini ta'minlashning aniq jarayoniga nisbatan omillarni tizimlashtirish yondashuvi asosida amalga oshirilgan, deb xulosa qilish mumkin.

Masalan, oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatining modelini to'rt guruhga mujassamlangan quyidagi omillarning kombinatsiyasi bilan aniqlash mumkin:

1. Ta'lim xizmatlarini oluvchi shaxsning sifat darajasi (abituriyent, talaba, doktorant).

2. Ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi ob'ektning sifat darajasi (oliy ta'lim muassasasi, universitet), shu jumladan:

- o'quv dasturlarining sifati (tarkibi va mazmuni);

- professor-o'qituvchilar tarkibining sifati (kasbiy va pedagogik malakasi, ilmiy unvoni va darajasi);

- ta'lim-tarbiya metodikasining sifati (o'qitish metodikasi va texnologiyalari);

- ta'lim xizmati ko'rsatish jarayonini resurs bilan ta'minlash sifati:

- moddiy-texnik darajasi (o'quv xonalari va laboratoriyalar jihozlanishi, sarflanuvchi materiallar bilan ta'minlanganlik);

- axborot-uslubiy (o'quv adabiyotlari, qo'llanmalar, ko'rsatmalar, topshiriqlar to'plamlari, maketlar, to'nanorlar va hokazo);

- ilmiy tadqiqotlar sifati.

3. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayonining sifati, shu jumladan:

- ta'lim xizmatlari ko'rsatishda qo'llaniladigan texnologiyalar va ularni amalga oshirish sifati (o'quv jarayonlarining shakli va mazmuni, motivatsiya omillari);

- ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonini nazorat qilish sifati;

- ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayoni natijasining sifati (talabalar va bitiruvchilar bilim darajasining mutaxassislik yo'nalishlar bo'yicha davlat ta'lim standarti talablariga muvofiqligi),

4. Ta'lim xizmati iste'molchilarining qoniqish darajasi:

- ta'lim xizmatlari sifatidan iste'molchilarning yuqori darajada qoniqishi (talabalar, ish beruvchilar va boshqalar);

- ta'lim muassasasi o'qituvchilari va xodimlarining o'z ishlaridan yuqori darajada mamnunligi;

- jamiyat a'zolarining yuqori darajadagi o'qimishliligi.

Ta'lim jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, u har qanday ishlab chiqarish jarayoni bilan juda ko'p o'xshashliklarga ega bo'lishi bilan birga tub farqlar ham mavjud. Oliy ta'lim ko'rsatadigan ta'lim xizmatlari, ya'ni u yoki bu sohada oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash o'zgacha xususiyatga ega. Ta'lim xizmatlarining o'ziga xosligi, bizning fikrimizcha, ushbu xizmatning quyidagi jihatlari to'plami bilan belgilanadi:

- faoliyat turlari (OTMning asosiy faoliyati ta'lim-tarbiya va ilm);

- faoliyat ob'ekti (ta'limning ob'ekti inson shaxsi bo'lib, u har qanday shablonli yondashuvlarni inkor etadi);

- ishlab chiqarishning davomiyligi va mehnat sig'imi (4 yil-bakalavriat + 2 yil magistratura, 7200 + 3600, jami 10800 o'quv soati);

- murakkablik (40-60 xil fanlar o'qitiladi, katta hajmdagi zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari talab etiladi);

- ilmiylik (ta'lim faoliyatining samaradorligi ilmiy tadqiqotlar samaradorligiga bog'liq, aynan ilmiy faoliyat professor-o'qituvchilarga o'zlarining kasbiy bilimlari va amaliy tajribalarini doimiy ravishda takomillashtirish va to'ldirishga imkon beradi);

- ko'p xarajatlilik (xodimlarning katta qismini yuqori malakali mutaxassislar: fan doktorlari (Ds va PhD), professor va dosentlar tashkil etadi);

- iste'mol qilish muddati (odatda - ko'p yillar davomida sifatli ta'lim to'g'risidagi fikrlar shakllanadi);

- javobgarlik (oliy ma'lumotli mutaxassislar jamiyatning intellektual salohiyatining asosiy unsuridir).

Ko‘rinib turibdiki, ta’lim xizmatlari sifat menejmenti tizimini faqat ISO 9000 seriyasiga asoslangan tizim doirasiga “sig‘dirish” dargumon. Umuman, xalqaro standartlarni to‘liqligicha qo‘llash ham, ularni inkor etish ham noto‘g‘ri, deb hisoblaymiz. Bunda ijodiy yondashuv zarur bo‘lib, uning asosida bu qoidalarni aniq talqin qilish va amaliy harakatlarni muvofiq ravishda shunga qaratish talab etiladi. Shuning uchun ham standartlarni TQM tizimi dastaklari bilan boyitish zarur.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, oliy ta’lim sohasida sifat menejmentining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ta’lim sifatining ko‘p qirraliligi (ta’limning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qirralari, ularning har biriga muvofiq ta’limning yakuniy natijasi sifati va ushbu sifatga erishishni ta’minlaydigan ta’lim tizimlari salohiyatining sifati; ta’lim-tarbiya va o‘qitish natijalarining sifati, ijodiy va reproduktiv, bilim va ko‘nikma komponentlar);

- yakuniy sifat natijalarining ko‘p darajaliligi (bakalavriat, magistratura, doktorantura, malaka oshirish va qayta tayyorlash bitiruvchilarining sifati);

- ta’lim sifatining ko‘p sub’ektivligi (ta’lim sifatini baholash ko‘p sonli turli sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladi; asosiy sub’ektlar: talabalarining o‘zi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bitiruvchilari, turli xil qo‘shimcha ta’lim dasturlari tinglovchilari; talabalarining ota-onalari; ish beruvchilar; jamiyat va davlat idoralari; ta’lim tizimining o‘zi; uning turli darajalari va bosqichlari vakillari; ta’lim tizimi tadqiqotchilari);

- ko‘p mezonlilik - ta’lim sifati ta’lim qirralariga muvofiq bir qator mezonlar bilan baholanadi;

- polixronlik - bu turli vaqtlarda bir sub’ekt tomonidan turlicha qabul qilinadigan ta’lim sifatining joriy, taktik va strategik jihatlarini muvofiqlashtirish (vaqt o‘tishi bilan hayot davomida, ish faoliyatida bitiruvchilar o‘zlari olgan ta’lim sifatini, ayrim fanlar va o‘qituvchilarning qiymatini qayta baholaydilar; jamiyat va davlat, taraqqiyot darajasiga qarab, ta’limning sifati va mazmuni ustuvorliklarini qayta ko‘rib chiqadilar va boshqalar);

- ta’lim sifatini va ta’lim tizimlarini baholashda noaniqlik (turli sub’ektlar tomonidan ta’lim sifatini baholashda sub’ektivlikning yuqori darajasi);

- ta’limning doimiylik va o‘zgaruvchanlik xususiyati. Ta’lim tizimlari, ta’lim muassasalari va ularning bitiruvchilarining ko‘plab sifat xislatlari orasida har bir ta’lim darajasining barcha bitiruvchilari uchun, har bir mutaxassislik yoki tayyorlov yo‘nalishi uchun umumiy bo‘lgan o‘zgarimas sifat fazilatlarini va maxsus (aynan shu bitiruvchilar to‘plami yoki ta’lim tizimlari uchun) o‘zgaruvchan sifat fazilatlar mavjud.



1.1-rasm. Ta’lim sohasida sifat menejmentining o‘ziga xos xususiyatlari¹

Bundan kelib chiqadiki, ta’lim sifatini ko‘p o‘lchovli tushuncha sifatida ko‘rib chiqish zarur bo‘lib, uni ochib berishga sifat menejmenti nuqtai nazaridan tizimli va jarayonli yondashish tavsiya etiladi. Ta’lim sifatini boshqarish ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sifat menejmenti umumiy nazariyasining muammoli sohasidir.

¹ Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni
2. Teylor, F. U. Prinsipi nauchnogo menedjmenta : per. s angl. // Kontrolling.-1991.-Vip. 1.
3. Fayol, H. General and Industrial Management. - Constance Storrs. Pitman. -London, 1949.
4. Вебер, М Избранные произведения : пер. с нем. - М. : Прогресс, 1990. -804 с.
5. Gafurova , S. K. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN EDUCATION: A SYSTEMATIC APPROACH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 126–129.
6. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. *Educational Research In Universal Sciences*, 2(17), 126-129.
7. Фафурова, Ш. (2024). ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 25(1), 274-281.
8. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. *Educational Research In Universal Sciences*, 2(17 SPECIAL), 126-129.

Муратова М.Г.
, ТауГАУ

НАПРАВЛЕНИЯ ПЕРЕХОДА К УСТОЙЧИВОМУ СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ

В Узбекистане с 2017 году начался новый этап реформ во всех сферах жизни. В настоящее время происходит переход от модели экономического роста к модели, направленной на создание большего количества рабочих мест, уменьшение воздействия на окружающую среду, а также проведение диверсификации отраслей экономики.

Принятая в 2019 году Стратегия развития сельского хозяйства на 2020-2030 гг. обеспечивает основу для проведения реформ по 9-ти приоритетным направлениями развития и вносит существенный вклад в нашу общую программу перехода к устойчивому сельскому хозяйству.

Реформы начаты с пересмотра рынка сельскохозяйственной продукции. На протяжении ряда лет действовала система «госзаказа», в рамках которой фермерские хозяйства обязаны были, выращивая хлопок и пшеницу, заниматься монокультурным производством, продавая урожай по установленным правительством ценам.

Вместо системы «госзаказа» осуществляется переход на рыночные принципы договорных отношений между кластерами, фермерами и государством.

Отпускные цены на хлопок были либерализованы в 2020 г., а на пшеницу - в 2022 г. С 2022 г. фермеры получили право свободно продавать всю свою продукцию по рыночным ценам.

В соответствии со «Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» взят курс на производство сельхозпродукции на основе специализации районов на выращивании конкретного вида продукции. 51 район был специализирован на плодоовощеводстве, 48 - на виноградарстве, 40 - на картофелеводстве.

В стране в целях обеспечения продовольственной безопасности и стабильности цен на внутренних рынках, увеличения доходов населения путем поддержки его инициатив в аграрном секторе в 2022-2023 годах на территориях, высвобожденных из-под хлопка и зерна, передаются населению в аренду посредством открытого электронного конкурса в общей сложности 200 тысяч гектаров земельной площади.

В общей сложности на высвобожденных землях организуются дехканские хозяйства, которые обеспечат посадку на 71 тыс. га овощей, 30 тыс. га картофеля, 34 тыс. га бахчей, 22 тыс. га масличных культур, 43 тыс. га бобовых с организацией 856 тыс. новых рабочих мест. При этом принимаются меры по закупке, переработке, хранению, направлению на внутренние и внешние рынки выращенной готовой продукции с привлечением агропромышленных кластеров и предприятий, занимающихся заготовкой, переработкой и экспортом. Намечена организация 69 холодильных склада емкостью 70 тыс. тн., 46 предприятия по переработке продукции мощность 69 тыс тн.

В связи с тем, что государство уделяет большое внимание развитию сельского хозяйства и садоводства, качество и объем экспортируемой продукции увеличиваются из года в год. В частности, объем экспорта плодоовощной продукции в 2022 году составил 1 743,7 тыс. т и, в стоимостном выражении, достиг 1 145,8 млн. долл. США (темпы увеличения по сравнению с 2021 годом составили 18,5 %).

Особое внимание уделяется повышению эффективности и поэтапное перераспределение государственных расходов на развитие сельского хозяйства.

| | |
|---|------------|
| Сеитова Лейла Пулатовна. Устойчивого развития в условиях социально-экологических ограничений | 279 |
| Jumaeв Shuxrat. Barqaror iqtisodiyotni ta'minlashda yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari | 281 |
| Зуфарова Гулмира Абдухалиловна. Andijon viloyatining barqaror rivojlantirishda bandlik sohadagi muammolarni nazariy-metodologik o'rganish | 286 |
| G'afurova Shahloxon Karimovna. Oliy ta'lim sohasini barqaror rivojlantirishda sifat menejmentining o'ziga xos xususiyatlari | 290 |
| Муратова М.Г. Направления перехода к устойчивому сельскому хозяйству | 293 |
| 4-sho'ba. MUQOBIL ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHDA "YASHIL IQTISODIYOT" TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MASALALARI | 295 |
| D.Sh.Yavmutov. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekistonda energetika tizimini barqaror rivojlantirishning hududiy jihatlari | 296 |
| Fozil Holmurotov Saribayevich, Yaqubova Yulduz Raimovna. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni rivojlantirish | 298 |
| Nimatov Samad Jaysanovich, Ashurov Xatam Bahronovich, Maksimov Sergey Yevlantieich, Kuchkanov Sherzodbek Kurbonovich. Zaripov Odiljon Olimjonovich. Vakuumba o'stirish usulida hosil qilingan si/si plenkali strukturalarida eyuk va tok paydo bo'lish jarayonlarini tahlil qilish..... | 303 |
| Fozil Holmurotov Saribayevich, Yaqubova Yulduz Raimovna. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish muammolar, imkoniyatlar | 307 |
| Qurbonazarov Suhrob Erkin o'g'li, Ochilov Samandar Mirvali o'g'li. O'zbekiston gidroenergetikasining istiqbollari..... | 313 |
| PhD, Fozil Holmurotov Saribayevich, Bakturdiyeva Marjona Doniyor qizi, Shavkatov Boburbek Alijon o'g'li, Qo'ziboyev Boburjon Alijon O'g'li. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning ilmiy nazariy va uslubiy jihatlari. | 316 |
| Yaqubova Yulduz Raimovna, Xabibullo Xoji Muxammadsolix Alisher o'g'li, Raxmanaliyeva Madinabonu Qaxramon qizi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'zbekiston energetika sektoriga integratsiyalashuvi: imkoniyatlar, muammolar va siyosat oqibatlari | 318 |
| Yaqubova Yulduz Raimovna, Xabibullo Xoji Muxammadsolix Alisher o'g'li, Raxmanaliyeva Madinabonu Qaxramon qizi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'zbekiston energetika sektoriga integratsiyalashuvi: imkoniyatlar, muammolar va siyosat oqibatlari | 322 |
| Sardor Amonov, Renewable Energy Integration in Germany: Implications for Global Energy Transition..... | 325 |
| Abdiyev Xasan Ergash o'g'li. Quyosh suv isitgichlarining avtomatik masofadan boshqaruv qilmasini loyihalash..... | 328 |
| Xolmirzayev Ilhom Jumayevich, Xushboqov Botir A'zamat o'g'li. Abdihamidova Tursunoy Sherzod qizi. Elektr energiya ishlab chiqarishda duch kelayotgan muomalar va ularni yechimi | 330 |
| Xolmirzayev Ilhom Jumayevich, Qodirov Fozil Abduvohidovich. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishda gidroturbinalarning o'rni | 332 |
| Toshev Fazliddin Zayniddinovich. Neft gaz sanoati korxonalarida "yashil energetika"ni rivojlantirishda soliq omillaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. | 333 |
| Шилец Рустам Николаевич. Автоматизация мониторинга деформации сооружений : современные технологии и гипотезы интеграции web3 технологий | 335 |
| 5-sho'ba. YASHIL IQTISODIYOTNI ISTIQBOL RIVOJLANTIRISH ORQALI EKOLOGIK MUAMMOLARNI YUMSHATISH VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH..... | 340 |
| D.Sh.Yavmutov, O.Safarov. Tabiatidan samarasiz foydalanishning iqtisodiy jihatlari va uni yaxshilash yo'llari (Buxoro viloyati misolida)..... | 341 |
| Саломова Хакима Юсуповна. Экологик қиймат ва экологик меъёрга риоя қилиш – яшил иқтисодиёт пойдевори..... | 343 |
| Кочкина Г.А., Жолдасбекова Динара М., Жолдасбекова Диляра М. Страхование ответственности владельцев домашних животных и их влияние на экологию..... | 353 |
| Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich, Hakimov Elbek O'ktamovich. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda iqlim o'zgarishining ta'siri | 357 |
| Nutfillo Ibragimov, Madina Sayfullayeva. Sustai banle ecotourism services and quality control..... | 360 |
| Xamroyev Xalim Rozikovich. Ekologik muammolar va turizmni rivojlantirish | 364 |

| | |
|--|-----|
| Саломова Нигина Музафаровна, Курбонов Нодир Мирзохидович. Табиат ва инсон саломатлиги: Фойда ва зарар..... | 366 |
| Аликулов Абдимумин Исматович, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович. Существующие проблемы ведения бухгалтерского учета экологических затрат в хозяйствующих субъектах и пути их решения..... | 370 |
| Ibragimov Nutfillo Salimovich, Khaydarova Dilora Ikhtiyorovna. The development of ecotourism by prospective expansion of the green economy in Uzbekistan..... | 377 |
| Хакимов Аброр Максимович, Хакимов Ботир Али Аброр угли. Экологическая культура безопасности - важный аргумент для современного стиля жизни населения планеты..... | 380 |
| Elov Ashrafjon Asqarjon o'g'li. Iqlim o'zgarishlari sharoitida barqaror rivojlanish masalalari | 381 |
| Хакимов Аброр Максимович, Турекеев Хожаахмет Сабырбаевич, Хакимова Зарина Аброр кизи. Отрицательное воздействие человека на почву и пути их снижения..... | 384 |
| Amirqulov Shuxrat Olimovich. Organik qishloq xo'jaligi -tabiiy muvozanat va yashil iqtisodiyot omili | 387 |
| Sayfulloyev Oybek Olimovich. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari..... | 390 |
| Madina Sayfullayeva. Enhancing Ecotourism Services: Integrating Quality Management and Sustainability Criteria..... | 396 |
| Бекмурот Исомов. Проблемы финансово-кредитного обеспечения экономики туризма | 398 |
| Amirqulov Shuxrat Olimovich. Organik qishloq xo'jaligida standartlash va sertifikatlashning iqtisodiy asoslari..... | 401 |
| Azamat Sulaymonov. O'zbekistonning barqaror kelajagi uchun Braziliya, Niderlandiya va Avstraliyadan o'zlashtirishi mumkin bo'lgan yashil transport saboqlari | 404 |
| Эшмуродова Н.Ш., Джавлиева М.З. О техногенном воздействии промышленных предприятий алмалыкской области на экологические и гидрологические условия реки Ахангаран..... | 407 |
| Хидоятова Нигора Шоракибовна. Экономика агломерации..... | 411 |
| Istamkhujia Olimovich Davronov. The importance of green technologies in the sustainable development of hotels..... | 414 |
| Aliqulova Diloram Abduraxmonovna. Surxondaryo viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari..... | 419 |
| Jasur Abdullaev. Assessing the Environmental Impact and Sustainable Tourism Potential of Earthquake-Prone Destinations in Central Asia | 420 |
| Hamdamov Amriddin Hamdam o'g'li. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida turizm sohasini raqamli integratsiya resurslari orqali rivojlantirish istiqbollari | 425 |
| N.Muminova. Tarixiy shaharlarnig shakllanishida arxeologik turizm. (farg'ona viloyati misolida)..... | 433 |
| Sanoatov San'at Sur'atovich, Saidova Feruza Kamolovna. Yashil iqtisodiyotni istiqbol rivojlantirish orqali ekologik muammolarni yumshatish va ekoturizmni rivojlantirishni ta'minlash..... | 435 |
| Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna. Navoiy viloyatining turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etishga doir takliflar | 437 |
| Жобборов Бахром Тургунович, Erkinova Shahinabonu Olmos qizi. Texnogen konlar va ularning tabiiy muhitga ta'sir xususiyatlari | 440 |
| Sharapova Nigina Kadirovna. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish zarurati va ahamiyati..... | 442 |
| To'xtayev Maqsud Mansurovich. Atrof -muhitni muhofaza qilishda ekologiya solig'ining o'rni | 445 |
| Bakayeva Mahira Akhrorovna, Idieva Shahina. The socio-economic essence of improving the tourist network through the prospective development of green economy..... | 447 |
| Ходжаева Дилбар Хуршидовна. Сельский туризм - как востребованный сегмент туристской индустрии..... | 450 |
| Otabek Jalolov. O'zbekistonning ekologik muammolarini bartaraf etish va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari..... | 453 |